

## 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi jamiyat farovonligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Resurslar sarfini tejovchi samarali innovatsion iqtisodiyotni barpo etish jarayonida xizmatlar sohasi alohida o'rinni tutadi, chunki u, tovar ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, materiallar sarfini kamligiga, xarajatlarni tez qoplanishi va yuqori daromadlilikka ega.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

4 711,2  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

102,3 %

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari  
hajmining o'sish sur'atlari

100,7 %

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmining o'sish  
sur'atlari

2512,2  
ming so'm

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi




Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'r-satilgan bozor xizmatlari hajmi 4711,2 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 524,2 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,3 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

### Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 199,6 mlrd. so'mga oshib 683,1 mlrd. so'mga yetdi.

#### Taqqoslash uchun:

o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 158,2 mlrd. so'mga o'sgan va 552,8 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2020- yil IX - diskret (sentabr) oyining hajmiga nisbatan taqqoslaganda, 2020- yil IX – diskret (sentabr) oyining hajmi 30,8 mlrd. so'mga o'sgan.

**Taqqoslash uchun:**  
2019 - yilning VII va VIII – diskret oylari o'rtaсидаги farqi 41,7 mlrd. so'mni tashkil etган.





Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

| Xizmatlar - jami   | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da |
|--|----------------------|--|
| shu jumladan:  | 4 711,2              | 102,3  |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 250,4                | 111,8  |
| Moliyaviy xizmatlar  | 934,4                | 127,5  |
| Transport xizmatlari   | 1158,6               | 101,0  |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari   | 1113,2               | 101,2  |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 102,4                | 85,2   |
| Savdo xizmatlari   | 1275,0               | 95,4   |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 129,2                | 90,7   |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 169,7                | 82,9   |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 76,4                 | 93,9   |
| Ijara xizmatlari   | 96,9                 | 102,4  |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                             | 153,2                | 93,3   |
| Shaxsiy xizmatlar  | 143,3                | 92,7   |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar | 109,2                | 133,7  |

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa xizmatlar

112,5

82,8

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 27,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,6 %), moliyaviy xizmatlar (19,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,3 %) qayd etildi.

Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'Imagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'Imagan ulush ijara sohasidagi xizmatlar -

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2,1 %, yashash va ovqatlanish xizmatlar - 2,2 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hissasi 2,3 % ga to'g'ri keldi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi**



Yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlar (33,7 %), moliyaviy xizmatlar (27,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (11,8 %) da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Ta'lim sohasidagi xizmatlari hajmi sezilarli darajada (17,1 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (17,2 % ga), yashash va ovqatlanish xizmatlar (14,8 % ga), ko'chmas mulk bilan



bog'liq xizmatlar (9,3 % ga), shaxsiy xizmatlar (7,3 % ga), kompyuterni ta'mirlash xizmatlari (6,7 % ga), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari (6,1 % ga) da pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'tasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajida savdo xizmatlarining ulushi 27,1 % ni tashkil etib, bu 1 275,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


### **Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosi,  
jumladan, ularni ta'mirlash  
xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari  
(avtomobillar va  
mototsikllar savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar savdosidan  
tashqari chakana savdo  
bo'yicha xizmatlar

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi 27,1 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,9 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,1 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 934,4 mlrd.  
so'mni - tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 692,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

**Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.**

*Taqqoslash uchun:* 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni ulushi 16,5 % ni tashkil etdi.

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan hajmni 242,4 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.**




**Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 27,5 % ni tashkil etdi.**

*Taqqoslash uchun:* 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularni o'sish sur'ati 164,9 % ga yetgan.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadiaan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)**



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,5 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,1 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 2,4 % ni tashkil etadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKTning rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

AKTdan faol foydalanish keng qamrovli infratuzilmaga asoslangan bo'lib, u eng zamonaviy uskunalar va texnologiyalar bilan jihozlangan, yuqori kadrlar salohiyatiga ega.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




2020 - yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 250,4 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 111,8 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

### Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 96,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 0,9 %, noshirlik xizmatlari - 1,5 %, shuningdek, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,3 % dan tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020 - yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 169,7 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 82,9 % ni tashkil etdi.



### Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 85,2 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 102,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi atigi 2,2 % ni tashkil etdi.



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash** bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

74,0 %



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

26,0 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylajmiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 74,0 % bilan ustunlik qiladi.


2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 26,0 % ni tashkil etdi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar** *(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 76,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiylajmi hajmida ularning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,9 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarining daromad darajasi, didi va xohish-istiklariga qarab differensiyalanadi.

## **Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari** *(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)*

| Xorazm viloyati | Hajmi,<br>mlrd. so'm | O'tgan yilga<br>nisbatan o'sish<br>sur'ati, % da | Aholi jon boshiga<br>ko'rsatilgan bozor<br>xizmatlari hajmi,<br>ming so'm |
|-----------------|----------------------|--|---|
| Urganch shahri  | 4 711,2              | 102,3  | 2 512,2   |
| Xiva shahri     | 2 356,5              | 104,2  | 16 342,0  |
| tumanlar:       | 165,0                | 101,4  | 1 783,7   |
| Bog'ot          | 208,8                | 104,0  | 1 267,7   |
| Gurlan          | 214,2                | 101,1  | 1 444,1   |
| Qo'shko'pir     | 207,3                | 107,2  | 1 202,9   |

### Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



## XORAZM VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

|              | Dastlabki ma'lumotlar |       |         |
|--------------|-----------------------|-------|---------|
| Urganch      | 332,3                 | 84,1  | 1 671,8 |
| Hazorasp     | 232,2                 | 100,3 | 1 198,9 |
| Tuproqqa'l'a | 69,9                  | 95,1  | 1 266,5 |
| Xonqa        | 230,5                 | 100,9 | 1 236,4 |
| Xiva         | 172,8                 | 108,7 | 1 185,8 |
| Shovot       | 193,7                 | 103,7 | 1 139,3 |
| Yangiariq    | 170,6                 | 106,6 | 1 469,9 |
| Yangibozor   | 157,4                 | 110,9 | 1 800,9 |
|              |                       |       |         |

*\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri (2256,5 mlrd. so'm), Urganch tumani (332,3 mlrd. so'm), Xonqa tumani (230,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

Ma'lumki, zamонави O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqueida.

### Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2512,2 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,7 % ni tashkil etdi.



2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan

Respublikada xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati va imtiyozlari, xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ayniqsa zamонавиу xizmat turlariga bo'lgan iste'molchilar talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda, bir tomonidan xizmatlarni ishlab chiqarish hajmiga uy xo'jaliklari daromadlari va imtiyozlar, xizmatlarga tariflar, boshqa tomonidan investitsiyalar, soliq, pul-kredit va davlat siyosati, ilmiy-texnik siyosat, shuningdek, kichik biznesning rivojlanishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 62-22-4-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi